2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”

IJODIY PARVOZ

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasi

2026-yil sentyabr № 9 (148) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz





MUSTAQILLIK DARSI

YANGI O‘QUV YILINING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSI

Jonajon Vatanimiz – O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo‘lini boshlaganiga 35 yil to‘ldi. Istiqlol el-yurtimiz uchun o‘z taqdirining haqiqiy egasi bo‘lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda, davlatimiz mustaqilligi – har bir insonning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

Davomi 2-betda



Oila institutini mustahkamlashda jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati namoyandalarining oila instituti, oilaviy tarbiya, er-xotin munosabatlari, xotin-qizlar ma’rifati va farzand kamolotiga doir qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Jadidlar oilani faqat shaxsiy hayot makoni emas, balki millat ma’naviyati, ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyotining muhim instituti sifatida talqin qilganlar. Aniq dalillarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida oila intizomi va millat taraqqiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik, Avloniy merosida tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyati, Behbudiy ijodida esa ota-ona mas’uliyati, ilm-ma’rifat va qizlar ta’limining oila hayotidagi o‘rni alohida yoritilgan bo‘lib, jadidlarning ushbu g‘oyalari zamonaviy oila institutini mustahkamlash nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatga egadir.

Oila jamiyatning eng qadimiy va barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, insonning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishi va ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatishida muhim vazifani bajaradi. Oilaning mustahkamligi faqat nikohning mavjudligi bilan emas, balki undagi o‘zaro hurmat, mas’uliyat, tarbiya, ma’naviy muhit va iqtisodiy-maishiy munosabatlarning uyg‘unligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda oila masalasi har qanday jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Davomi 3-betda

Bugungi sonda:

OQ QOG‘OZGA KO‘CHGAN MEHR:
Ustoz! Sizning “Dars muqaddasdir” degan da’vatingiz butun umr yo‘limizni yorituvchi mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda ilmga bo‘lgan qiziqishim meni magistratura talabasi bo‘lishga undadi. 4

MADANIYAT VA ZAMONAVIYLIK, AN’ANA VA INNOVATSIYA TO‘QNASHUVI
Zamonaviylikning jadal rivoji ko‘plab an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, madaniy inqiroz xavfini ham keltirib chiqaradi. 5

Adolat fasli
Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida Sohibqiron Amir Temur hayoti va adolatli boshqaruviga bag‘ishlangan “Adolat fasli” spektaklining premyerasi bo‘lib o‘tdi. 7

QUYOSHNING SO‘NGGI KUNI
Yorug‘lik uning yuzini yoritdi, go‘yo bu quyosh unga: “Bugun sening kuning”, degandek edi. O‘sha tongda Shahlo o‘zini boshqa hech qachon his qilmagan darajada kuchli va umidvor his qildi. 8







MUSTAQILLIK DARSI

YANGI O‘QUV YILINING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSI

Boshlanishi 1- betda

Ma’lumki, mustaqillik yurtimiz hayotidagi eng ulug‘ va eng aziz ayyom sifatida har yili keng nishonlanib, ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan yurtimiz bo‘ylab turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, bayram shodiyonalari hamda targ‘ibot-tashviqot loyihalari tashkil etiladi. E’tiborlisi, har bir yilgi bayram tadbirlari o‘ziga xos mazmun va g‘oyaviy ruhni ifoda etuvchi ezgu shior ostida o‘tkazilib, xalqimizni yagona maqsad sari safarbar etishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: ***“Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz. O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q. Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!”***

Darhaqiqat, ushbu fikrlar xalqimizning mustaqillik yillarida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li, bugungi bunyodkorlik va yangilanishlar, shuningdek, kelajak sari dadil intilishlarining mazmun-mohiyatini o‘zida mujassam etadi. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan g‘oya esa xalqimizni ezgu maqsadlar atrofida birlashtirish, yosh avlod qalbida Vatanga daxldorlik va mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlash, mamlakatimizning yorqin kelajagini barpo etish yo‘lida barchani hamjihatlik va bunyodkorlikka chorlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu va ulug‘vor g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturi doirasida 2026-2027 yangi o‘quv yilini mazmunli, ko‘tarinki ruhda va yuksak tashkiliy saviyada boshlash, yoshlarning qalbida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va iftixor, mustaqillik va tinchlikning qadriga yetish, ona yurt taqdiriga daxldorlik hamda fuqarolik mas’uliyati tuyg‘ularini yanada mustahkamlash maqsadida respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalarida “Mustaqillik dars”larini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish rejalashtirilgan. Mazkur darslarni o‘quvchilar va talabalarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim darajasi hamda qiziqishlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, interfaol usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda tashkil etish ko‘zda tutilgan.

“Mustaqillik dars”larining mazmun-mohiyatini yoritishda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida erishgan ulkan yutuqlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik salohiyati, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ta’lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar hamda Vatanimizning yorqin kelajagi yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu tashabbuslarga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, darslar davomida yoshlarda mustaqillikning tarixiy ahamiyati, uning xalqimiz hayotidagi o‘rni va mazmuni, milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, ona Vatanga sadoqat, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini asrash, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish kabi muhim tushunchalarni singdirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy-ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish nazarda tutilgan.

Shu munosabat bilan, mamlakatimizdagi barcha ta’lim muassasalarida bo‘lgani kabi, jonajon oliygohimiz – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham 2026-2027 yangi o‘quv yilining ilk soatlari “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g‘oya va shior ostida tashkil etilgan “Mustaqillik dars”lari bilan boshlandi. Ayniqsa, mamlakatimizda ta’lim, fan, madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, milliy madaniyatimiz va san’atimizni yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida fikr-mulohazalar bildirildi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabalari zimmasidagi mas’uliyat, kelgusida milliy san’at va madaniyatimizni rivojlantirish, uning boy an’analari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda munosib davom ettirish borasidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratildi.

Shu bilan birga mustaqillik yillarigacha bo‘lgan davr, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi fidokorona xizmatlari yodga olindi. Bugungi tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish, chuqur bilim olib, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shish lozimligi ta’kidlandi. Darslar yurtimizda ilm-fan sohasida uzoq yillik tajribaga ega professor-o‘qituvchilar va elimiz ardog‘idagi ustazoda san’atkorlar tomonidan olib borildi.

Yangi 2026-2027 o‘quv yilini munosib kutib olish va ta’lim jarayonini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida professor-o‘qituvchilar hamda institutimizning barcha xodimlari bilan birgalikda puxta tayyorgarlik ishlarini olib borildi. O‘quv xonalari, ta’lim jarayoni uchun zarur shart-sharoitlar, o‘quv-uslubiy ta’minot va tashkiliy masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Zero, yangi o‘quv yilining samarali boshlanishi, avvalo, ta’lim sifati va talabalarga yaratilgan imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Yangi o‘quv yilida ham talabalarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yetuk mutaxassislar sifatida shakllanishiga ko‘maklashish biz, professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifalarimizdan biridir, – **deydi “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsenti Mo‘minmirzo Xolmo‘minov.**



BAXTIYOR SAMIYEV,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Yangi o‘quv yilining ilk soatlarini ana shunday mazmunli va ma’naviy-ma’rifiy ruhdagi “Mustaqillik dars”lari bilan boshlash talaba-yoshlar uchun nafaqat yangi bilim va taassurotlar, balki Vatanimizning bugungi va ertangi taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim tarbiyaviy jarayon bo‘ldi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” nomli she’rining quyidagi misralari yodimga tushdi…

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun,
Olam aro atagan tanho.
Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o‘lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostondir bari.
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Oila institutini mustahkamlashda jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni



QUNDUZ NISHONBOYEVA,
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi professori v.b., tarix fanlari nomzodi

Boshlanishi 1- betda

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadid ma’rifatparvarlari ana shu haqiqatni ijtimoiy hayot tajribasi asosida anglab, oila va tarbiya muammolariga alohida e’tibor qaratdilar. Zamonaviy tadqiqotlarda ham jadidlarning oila, xotin-qizlar ta’limi, farzand tarbiyasi va ma’naviy muhit haqidagi qarashlari yaxlit ma’rifatparvarlik dasturining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Jadidlar oila mustahkamligini milliy taraqqiyotdan ajratmaganlar. Ular jamiyatdagi jaholat, savodsizlik, isrofgarchilik va tarbiyadagi kamchiliklarning ildizini oila va ta’lim muhiti bilan bog‘liq holda ko‘rib, muammoni ma’rifat, axloq va mas’uliyat orqali hal etishni taklif qilganlar.

O‘z davrida jadidlar odamlar ongida o‘ziga xos o‘zgarish yasashning uddasidan chiqdilar. Jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yarata oldilar. Ulardan eng asosiysi ta’limning yangi shakllari yaratildi, butunlay yangi ko‘rinishdagi madaniyat yaratildi.

Abdurauf Fitratning “Oila” deb nomlangan kitobi asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo‘lishga bag‘ishlangan. Kitobda “Qiz bolalar o‘qish kerakmi”? degan band ham bor. Muallifning yozishicha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa albatta ilmli va ma’lumotli bo‘lishi kerak, chunki u millat bolasini tarbiyalaydi.

Jadidlar tafakkurida oila – millat taraqqiyotining poydevori. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlar uchun oila masalasi xususiy maishiy munosabatlar doirasidan ancha keng ma’noga ega edi. Ular oiladagi tarbiya va axloqiy muhitni millatning kelajagini belgilaydigan omil sifatida baholadilar. Bu qarashning eng tizimli ifodasi Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ko‘rinadi. Adib o‘z asarida: **“Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi.”** – deb ta’kidlaydi. Fitratning yondashuviga ko‘ra, oiladagi tartib, o‘zaro hurmat va mas’uliyat milliy miqyosdagi ijtimoiy barqarorlikning mikro asosini tashkil etadi. Demak, oila institutini mustahkamlash jamiyatni mustahkamlashning quyi, ammo hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida qaraladi. Fitratning mazkur yondashuvi zamonaviy institutsional nazariya nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Oilada shakllangan ishonch, mas’uliyat, hamkorlik va axloqiy me’yorlar keyinchalik insonning maktab, mehnat jamoasi va fuqarolik jamiyatidagi munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, jadidlar oiladagi ma’naviy muhitni milliy taraqqiyotning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘rganlar.

Fitrat oilani er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi huquqiy, axloqiy va ma’naviy munosabatlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida nikohning maqsadi faqat oila qurish bilan cheklanmaydi; oilada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, farzandni jismoniy va aqliy jihatdan kamol toptirish, ota-onaning shaxsiy namunasini ta’minlash muhim vazifalar sifatida namoyon bo‘ladi. *“Oila tarbiyachisi tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq gavhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi”.* Bu fikr oilaviy tarbiyaning uzluksiz va erta boshlanish xususiyatini ko‘rsatadi. Bola uchun ota-ona faqat nazorat qiluvchi shaxs emas, balki birinchi tarbiyachi va namuna hisoblanadi. Shu sababli jadidlarning tarbiya haqidagi qarashlarida ota-onaning shaxsiy madaniyati, bilimdonligi va mas’uliyati alohida o‘rin egallaydi.

Fitratning ilmiy-ijtimoiy qarashlarini umumlashtirganda, uning oila konsepsiyasida uch asosiy tamoyilni ajratish mumkin: birinchidan, oilada o‘zaro hurmat va intizom; ikkinchidan, farzandning jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyasi; uchinchidan, oilaning jamiyat va millat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligi. Mazkur uchlik oila institutini barqaror ijtimoiy institut sifatida tushunish imkonini beradi.

Abdulla Avloniy: tarbiya – oila va jamiyat kelajagini belgilovchi omil sifatida qarab, adib tarbiya masalasini milliy taraqqiyotning markaziga qo‘yadi. Ma’rifatparvar adib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloq, tarbiya, ilm va inson kamoloti o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Avloniy tarbiyani oddiy pedagogik jarayon emas, balki millat taqdiriga ta’sir qiluvchi strategik masala sifatida belgilaydi. Oila esa tarbiyaning birinchi va eng ta’sirchan muhitlaridan biridir.

Jadid ma’rifatparvarlari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham ilm, ota-ona mas’uliyati va qizlar ta’limi, tarbiyasi haqidagi purma’no fikrlari ham bugun tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, maktab, matbuot, teatr va ma’rifat sohalarida faol ish olib borgan. Uning ijodida oila va farzand tarbiyasi masalalari ko‘pincha ilm-ma’rifat muammosi bilan bog‘langan. “Padarkush” dramasida ota-ona nazorati va tarbiyasi yetarli bo‘lmagan yoshning fojiali taqdiri orqali ilmsizlik va tarbiyasizlikning oqibatlari badiiy shaklda ko‘rsatiladi. Behbudiyning ma’rifatparvarlik pozitsiyasida ilm oila barqarorligining muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. *“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”.*

Bu fikrni oila instituti nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, bilimli ota-ona va bilimga intiladigan farzandlar oilaning intellektual salohiyatini oshirishini ko‘rish mumkin. Behbudiyning “Padarkush” asaridagi asosiy g‘oyalardan biri ham oila va maktab tarbiyasining uzviyligi bilan bog‘liq. Demak, bola tarbiyasi faqat maktab yoki faqat oilaning vazifasi emas, ularning hamkorligi barqaror natija beradi.

Behbudiy xotin-qizlar ma’rifatiga ham jiddiy e’tibor qaratgan. Zamonaviy tadqiqotlarda uning qiz bolalarning aqliy va axloqiy tarbiyasida oila va maktabning rolini ta’kidlagani, xotin-qizlarning ma’naviy va ma’rifiy rivojini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lagani ko‘rsatiladi. *“O‘lkamizda bizning ayollarning ahvoli nihoyatda qattiq muhokamaga muhtoj”* – deb ta’kidlaydi adib o‘z asarlarida. Shuningdek adib,”millatni isloh qilmoq uchun onalarni isloh qilmoq kerak”, degan fikri orqali ayollar ta’limi va ma’naviyati jamiyat islohotining bosh nuqtasi ekanligini ta’kidlaydi.

Behbudiyning xotin-qizlar ta’limiga munosabati oila institutini mustahkamlash nuqtayi nazaridan muhim. Chunki ona va ota farzandning birinchi tarbiyachilari bo‘lib, ularning savodxonligi, dunyoqarashi va ma’naviy madaniyati bola tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan jadidlar xotin-qizlar ma’rifati masalasini faqat shaxsiy huquqlar masalasi sifatida emas, balki oila va millat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ham ko‘rganlar.

Jadidlar uchun farzandning kelajagi tasodifiy jarayon emas, balki oiladagi tarbiyaviy muhitning natijasidir. Shuning uchun ota-onaning bilimliligi, shaxsiy namunasi, farzand bilan muloqoti va uning ta’limiga e’tibori muhim shart hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, jadidlar maktabdagi ta’limni oiladagi tarbiyadan ajratib qo‘ymaganlar. Behbudiyning “Padarkush” dramasida bu g‘oya badiiy tarzda ochiladi, Avloniyning asarida esa axloq va ta’limning birligi pedagogik tamoyil darajasida ifodalanadi. Jadidlar ayollarning bilim olishi, ma’naviy saviyasi va ijtimoiy faolligi oila hamda jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qilishini ta’kidlaganlar. Bu qarash zamonaviy sharoitda ham dolzarb bo‘lib, oilada ta’lim va tarbiyaning ikki tomonlama mas’uliyatini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Oilaning mustahkamligi faqat iqtisodiy ta’minlanganlik bilan belgilanmaydi. Jadidlar o‘zaro hurmat, totuvlik, mas’uliyat, mehnatsevarlik, halollik va ilmga intilish kabi qadriyatlarni oilaviy hayotning asosiy omillari sifatida ko‘rsatib o‘tganlar. Jadidlarning oila haqidagi qarashlarini zamonaviy sharoitga mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki ulardagi umuminsoniy va ilmiy-metodologik g‘oyalarni ajratib olish muhim. Bu g‘oyalar oilaviy munosabatlarda mas’uliyat, o‘zaro hurmat, ta’lim, muloqot va farzand manfaatini ustuvor qo‘yish kabi tamoyillarda namoyon bo‘ladi. Jadidlar merosi ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimga ega bo‘lish, bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning fikrini eshitish va shaxsiy namuna ko‘rsatish oilaviy tarbiya sifatini oshiradi.

Jadidlar ilgari surgan ta’limga e’tibor oila institutining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bilimli oila farzandda kitobxonlik, izlanish, mehnatsevarlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Jadidlarning xotin-qizlar ma’rifatiga doir qarashlari oilada erkak va ayolning tarbiyaviy mas’uliyatini uyg‘unlashtirish zarurligini anglatadi. Oilada farzand tarbiyasi bir tomonlama emas, hamkorlik asosida tashkil etilganda tarbiyaviy muhit barqaror bo‘ladi.

Jadidlar oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni muhim deb bilganlar. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida ham ota-ona, maktab va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi farzandning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy kamoloti uchun muhim shart hisoblanadi. Jadidlarning umumiy pozitsiyasiga ko‘ra, mustahkam oila – o‘zaro hurmat va mas’uliyatga asoslangan, farzand tarbiyasiga ongli munosabatda bo‘lgan, ta’lim va ma’rifatni qadrlaydigan, er-xotinning hamkorligiga tayanadigan ijtimoiy muhitdir. Shuning uchun oila institutini mustahkamlash masalasida jadidlar merosi tarixiy xotira sifatidagina emas, balki tarbiya va ma’naviyat siyosati uchun nazariy manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni ilgari surish mumkin: 1) *ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish;* 2) *oila va maktab hamkorligini kuchaytirish;* 3) *xotin-qizlar ta’limi va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash;* 4) *farzand tarbiyasida axloqiy namuna va muloqot madaniyatiga e’tibor berish;* 5) *oilada kitobxonlik, ilm-ma’rifat va milliy-umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish.* Mazkur yo‘nalishlar jadidlarning “oila – jamiyat – millat” munosabatlariga oid qarashlarini zamonaviy sharoitda amaliy mazmun bilan boyitish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida oila instituti jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, demografik rivojlanishi, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim subyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oila institutining zamonaviy transformatsiyasida bir vaqtning o‘zida ijobiy va salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda.

Ijobiy tendensiyalar qatoriga oilani davlat tomonidan ijtimoiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchayishi, xotin-qizlarning ta’lim va mehnat sohasidagi faolligining ortishi, yosh oilalarni uy-joy va ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash, oilaviy nizolarning oldini olish va psixologik-huquqiy yordam tizimining rivojlanishini kiritish mumkin. Shuningdek, 2025-yilda to‘rt va undan ortiq farzandli xo‘jaliklar ulushining 8,9 foizga yetgani oilaning demografik salohiyati nuqtayi nazaridan ijobiy holat sifatida baholanishi mumkin. Biroq oila instituti barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy tendensiyalar ham mavjud. Jumladan, nikohdan ajralishlar sonining yuqoriligi, oilalardagi iqtisodiy muammolar, ishsizlik, uy-joy masalasi, oilaviy zo‘ravonlik, xotin-qizlarga nisbatan saqlanib qolayotgan gender stereotiplar va oilaviy mas’uliyatning nomutanosib taqsimlanishi shular jumlasidandir. Zero, oila barqarorligini faqat nikohlarni saqlab qolish mezoni asosida baholash yetarli emas. Zamonaviy yondashuvda oila barqarorligi uning iqtisodiy farovonligi, ma’naviy-psixologik muhiti, a’zolarining huquqiy himoyasi, mas’uliyatli ota-onalik madaniyati, xotin-qizlar va erkaklarning teng imkoniyatlari hamda bolalar uchun xavfsiz tarbiyaviy muhit bilan birgalikda baholanishi lozim.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda oila institutining barqarorligini ta’minlashning asosiy vazifasi oilaning an’anaviy qadriyatlarini saqlash bilan bir qatorda, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos bo‘lgan yangi oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, xotin-qizlarning ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, mas’uliyatli nikoh va ota-onalik madaniyatini rivojlantirish hamda oilaviy nizolarning profilaktikasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2026-yilda O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash siyosati profilaktik, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish asosida davom etmoqda. Oliy majlis darajasida oila jamiyat va davlatning muhim tayanchi sifatida qaralib, uning barqarorligini ta’minlashda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nizoli oilalar bilan individual ishlash, oilaviy nizolarni ixtisoslashgan sudlarda ko‘rib chiqish, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish hamda nikohning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan choralar tizimi shakllantirilmoqda. Bu yondashuv oila institutini saqlashni faqat shaxsiy oilaviy masala emas, balki jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi strategik omil sifatida baholash imkonini bermoqda.

OQ QOG‘OZGA KO‘CHGAN MEHR:

(dotsent Vahobjon Rustamov faoliyatiga bir nazar)

San’at va madaniyat olamida shunday pedagoglar borki, ular nafaqat fanning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishadi, balki talabaning shaxs bo‘lib shakllanishiga ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsenti Vahobjon Rustamov aynan shunday fidoyi ustozlardandir. O‘z faoliyatida professional mahorat bilan yuksak insoniylikni birlashtirgan ustozning besh yillik saboqlari hayotimning eng yorqin sahifalariga aylandi.

SEVARA SULTONOVA,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Har bir ulug‘ asar bo‘sh sahifaga qo‘yilgan ilk satrdan, har bir muvaffaqiyatli ijodkor esa haqiqiy Ustozning ishonchidan boshlanadi. Ssenariynavislik – shunchaki voqealarni qog‘ozga tushirish emas, balki odamlar qalbiga kirib borish san’atidir. Bizga ana shu murakkab va jozibador olamning sir-asrorlarini o‘rgatgan, ilk ijodimizga yuksak baho berib, qanot bo‘lgan inson - bu ustozimiz Vahobjon Rustamovdir. U kishining har bir darsi biz uchun oddiy saboq emas, balki, hayot degan yo‘lining poydevori edi. Ustozning sodda, tushunarli tilda yozilgan “Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari” (2007), “Sahnaviy ifoda vositalari” (2009), “Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari” (2013), “Xalq teatri rejissurasi” (N.Sayfullayev bilan hammualliflikda, 2008), “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati” (B.Sayfullayev bilan hamkorlikda, 2016), “Prodyuserlik mahorati asoslari” darsligi (B.Sayfullayev bilan hammualliflikda, 2015), “Ssenariynavislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish” (2025) kabi o‘quv adabiyotlarini biz kabi yosh talabalar uchun juda katta manba va sohaga yo‘llanma sifatida ko‘rish mumkin.

V.Rustamov institut hamda Respublika miqyosida o‘tkazilayotgan juda ko‘p ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelgan. Jumladan, Toshkent shahri mahallalarida o‘tkazilgan “Mahallada duv-duv gap”, Sergeli tumanida “Porloq kelajakka qadam mening mahallam bilan”, Farg‘ona va Samarqandda tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston - inson qadri ulug‘langan yurt” hamda viloyatlarda o‘tkazilayotgan “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” loyihasi doirasida o‘tkazilgan madaniyat karvoni tadbirlarida faol ishtirok etgan. Ustozning shuncha yillik mehnatlari inobatga olinib, 2022-yil “Madaniyat va san’at fidokori ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

“Dars muqaddasdir!” – bu oddiygina jumlada butun bir umr mazmuni, kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat va kelajak avlodga nisbatan ulug‘ mas’uliyat yashiringan. Biz bu shiorni besh yil davomida har kuni auditoriyaga kirib kelganida yuzidan nur yog‘ilib turadigan ustozimiz Vahobjon akadan eshitdik va qalbimizga muhrladik. Qo‘limizga qalam tutqazib, “Fikrni bir joyga qo‘yib yozinglar” deya bizni birdamlikka, ijodiy jasoratga chorlagan ustoz haqida yozmaslikning, unga ehtirom ko‘rsatmaslikning iloji yo‘q, deb o‘ylayman.

Ustoz bizning kichik bir satrimizdan, oddiygina dialogimizdan katta ma’no qidirar, yutuqlarimizni ko‘klarga ko‘tarib, kamchiliklarimizni mehr bilan to‘g‘irlar edi. Ana shu yuksak baho va rag‘bat bizga ilhom berdi va ijod uchun keng parvozga shaylangan qanotga aylantirdi. Ustozning cheksiz ishonchi sababli biz o‘z kuchimizga ishondik, ijod qilishdan, xato qilishdan va yangi sahifalarni qoralashdan qo‘rqmaslikka o‘rgandik.

Besh yillik tahsil davomida ustozimizdan yuzlab topshiriqlar oldik, o‘nlab ssenariylar qoraladik. Ammo Vahobjon Rustamovichning birinchi bergan vazifasi barchamizning xotiramizga, butun umrimizga muhrlanib qoldi. O‘shanda



ustoz auditoriyaga har doimgidek nurli chehra bilan kirdi-da, kutilmaganda shunday dedi: *“Hurmatli talabalar, adabiyotda ham, hayotda ham onalarimiz hamisha e’zozlanadi, qadrlanadi, ularga atab she’rlar, g‘azallar, ssenariylar yoziladi. Bugun esa sizlarga mutlaqo boshqacha, hayotingizdagi eng muhim topshiriqni bermoqchiman. Uyga borib, otangizni qanchalik yaxshi ko‘rishingizni, unga bo‘lgan cheksiz mehringiz va minnatdorchiligingizni izhor qilib matn yozasiz. Uni otangizga o‘qib berib, o‘sha lahzada ularning ko‘zlarida qalqqan his-hayajonni, kechinmalarni darsda menga aytib berasiz...”*

Auditoriyaga chuqur sukunat cho‘kdi. O‘shanda barchamiz ich-ichimizdan titrab ketgandik. Chunki anglagandikki, shu paytgacha hech birimiz otamizning qarshisiga borib, uni qanchalik yaxshi ko‘rishimizni, u biz uchun qanchalik suyanch ekanini ochiq aytmagan, aytishga iymangan ekanmiz.

O‘sha kuni biz shunchaki ssenariy yozmadik, biz hayotimizdagi eng haqiqiy, eng samimiy tuyg‘ularni qog‘ozga ko‘chirdik. Uyda otalarimizga yozganlarimizni o‘qib berayotganimizda, ularning mag‘rur nigohlarida yosh qalqqanini, yelkalaridagi yillar yukini arigandek bo‘lganini ko‘rdik.

Keyingi darsda hammamizning ko‘zimizda yosh, qalbimizda cheksiz hayajon bor edi, eng muqaddas tuyg‘ularni kashf etishni o‘rgatgan, bizni otalarimiz bilan qayta tanishtirgan Vahobjon Rustamovga butun guruh bo‘lib minnatdorchilik aytdik. Ustoz o‘shanda bizga dramaturgiyaning eng bosh qonuniyatini – qalbning eng yashirin torlarini titratish san’atini o‘rgatgan edi.

Vahobjon Rustamovning auditoriyaga kirib kelishi bilan xonada o‘zgacha bir ijodiy muhit va professional intizom paydo bo‘lardi. Ustozning har bir soati ma’rifat va mas’uliyat darsi edi. U kishining tilidan tushmaydigan, har birimizning qalbimizga o‘chmas bo‘lib muhrlangan bosh mezon bor edi: “Dars muqaddasdir!”

Bu shunchaki ibora emas, balki ustozning o‘z kasbiga, ilmga va biz – talabalarga bo‘lgan cheksiz hurmatining oliy ifodasi bo‘lib, ustoz dars vaqtini soniyalarigacha qadrlar, har bir daqiqani yangi ijodiy kashfiyotlarga boyitar edi. U kishi uchun talabaning darsda erkin fikrlashi, mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishiga erishishi va eng asosiysi aniq bilimga ega bo‘lishi – barcha jarayonlardan ustundir.

Vahobjon Rustamovning darslarida biz san’atining eng murakkab nazariyalarini oddiy va hayotiy usullarda o‘rgandik. Ustoz bizga K.Stanislavskiy sistemasining tub mohiyatini sahnada va qog‘ozda shunchaki “ko‘rsatish” emas, balki qahramonning ichki kechinmalarini “yashash” va tomoshabinni bunga ishontirish sirlarini singdirdi. Matn ustida ishlashda asarning kompozitsion qurilishining oltin qoidalarini mukammal o‘rgatdi. Biz barcha asarlarning poydevorini tashkil etuvchi prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, konflikt, yechim va epilog zanjirini xuddi zargarlik buyumidek bir-biriga bog‘lashni ustozdan o‘rgandik. Vahobjon Rustamov mashqimizni tahlil qila turib, “agar tugun pishiq bo‘lmasa, konflikt rivojlanmaydi, konflikt kuchli bo‘lmasa, asarda yechim bo‘lmaydi,” deya ta’kidlaydi.

Biz darslarda faqat nazariyani o‘rganibgina qolmay, ustozimiz o‘zbek va jahon adabiyotining shoh asarlarini bizga tahlil qildirib, haqiqiy mahorat maktabini ko‘rsatdi. U.Shekspirning “Otello”, Qiyiq qizning quyilishi”, O‘lmas Umarbekovning “Kuzning birinchi kuni”, “Qiyomat qarz”, O‘tkir Hoshimovning “Qatog‘on” kabi asarlarini o‘qib chiqish va uni tahlil qilishni uyga vazifa sifatida berardilar. Ustoz badiiy asarlar o‘qishni va uni sahnaga ko‘chirish usullari haqida ham bizlarga topshiriqlar berish asnosida ko‘p narsalarni o‘rgatishga ulgurdilar. “Siz inssenirovka qilish orqali sahnaga ko‘chirish usullarini bilishingiz kerak, chunki sizga kerakli bo‘lgan mavzu bo‘yicha tayyor dramatik manbalar kam”, deb adabiy asarlarni inssenirovka qilish yo‘l-yo‘riqlarini sodda usulda tushuntirganlar.

Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asari orqali xarakterlar to‘qnashuvi, dialoglardagi yashirin ma’no va milliy mentalitetni syujetga qanday singdirishni o‘rgandik. Farmon bibi obrazining dramatik vazifasi va kelinlar o‘rtasidagi o‘sha mashhur “konflikt” qonuniyatlarini tahlil qilish ijodiy dunyoqarashimizni kengaytirdi.

Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asari tahlili esa biz uchun alohida kashfiyot edi. Ustoz bizga fantastik g‘oya (Alomat roboti) zamiriga qanchalik chuqur falsafiy-ijtimoiy dard, o‘zbek ayolining mashaqqatli hayoti va Qo‘chqor xarakteri orqali inson fojiasi qanday mohirona ko‘chirilganini o‘rgatdi. Bu tahlillar bizga dramaturgiya inson qalbining eng yashirin torlarini titratib, unda hayotni uyg‘otish san’ati ekanligini amalda isbotlab berdi.

Besh yillik o‘quv yili mobaynida ssenariynavislik fani o‘z yakuniga yetdi. Ammo Vahobjon Rustamov oxirgi darsimizni ham umrbod unutilmas bayramga aylantirib, katta taassurot qoldirdi. Ustoz eng yaxshi o‘qigan, fan sirlarini qunt bilan egallagan talabalarning ota-onalariga atab, o‘z minnatdorchiligi bitilgan maxsus Tashakkurnomalarni topshirdi. Shu onda har birimiz uchun cheksiz g‘urur va faxr tuyg‘usini berdi. Biz erishgan kichik muvaffaqiyat ortida oilamizning, ota-onamizning mehnatini ko‘ra bilgan ustozning bu oliyjanobligi uning naqadar buyuk qalb sohibi ekanini yana bir bor isbotladi. Hamma xursand, ayni paytda qadrdon auditoriya va aziz ustoz bilan xayrlashishning shirin sog‘inchi ichimizni o‘rtardi. Barchamiz quvnoq kayfiyat va katta umidlar bilan ustoz bilan xayrlashdik.

Bugun har birimiz hayot degan ulug‘ ssenariyning o‘zimizga tegishli sahnalariga qadam qo‘ymoqdamiz. Qo‘limizda ustoz tutqazgan qalam va qalbimizda u kishiga bo‘lgan cheksiz sadoqat bor. Professor v.b. Vahobjon Rustamov bizga faqat ssenariy yozishni emas, balki hayotda o‘z so‘zi va yuziga ega haqiqiy inson – yorqin qahramon bo‘lishni o‘rgatdi.

Siz bergan har bir saboq, ilk darsdagi otalarga ehtirom darsidan tortib, oxirgi darsdagi tashakkurnomalargacha ko‘rsatgan yo‘lingiz uchun ming bor rahmat, aziz Ustoz! Sizning “Dars muqaddasdir” degan da’vatingiz butun umr yo‘limizni yorituvchi mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda ilmga bo‘lgan qiziqishim meni magistratura talabasi bo‘lishga undadi. Nasib qilsa, magistraturani muvaffaqiyatli tamomlab, madaniyat va san’at sohasini ilmiy jihatdan taraqqiy ettirish yo‘lida tinmay mehnat qilib, yurtimizda madaniyat, san’at, ma’naviyat kabi tushunchalarning jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligini yoshlar ongiga singdirish yo‘lidan bormoqchiman.

Ustoz Vahobjon Rustamovning ilmiy va ijodiy ishlarida katta muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

MEHRIBON VA MUHTARAM USTOZ VAHOBJON RUSTAMOVGA !

Inson hayotida shunday ustozlar bo‘ladiki, ularning bergan sabog‘i faqat auditoriya devorlari ichida qolmaydi, butun umrga hamroh bo‘ladi. Siz men uchun ana shunday ustozsiz.

Bakalavrda tahsil olgan yillarimda Siz menga kurs murabbiysi bo‘lib, nafaqat talabalik yo‘limni kuzatdingiz, balki har bir qadamimda maslahat va yo‘l-yo‘riqlaringiz bilan ko‘mak berdingiz. Keyinchalik ilmiy rahbarim sifatida ilm olamiga kirib borishimda, izlanishlarimni to‘g‘ri yo‘naltirishimda, o‘z ustimda ishlashimda katta mehnat qildingiz.

Bugun ortga qarab, erishgan har bir yutug‘im ortida menga ishongan, meni qo‘llab-quvvatlagan, kerak bo‘lsa tanbeh berib, kerak bo‘lsa ruhlantirgan ustozlarimning haqqi borligini yanada chuqurroq his qilaman. Ana shu ustozlarim orasida Sizning o‘rningiz alohida.

Hayotning yana bir go‘zal tuhfasiga qarangki, kecha Sizdan saboq olgan shogird bo‘lsam, bugun taqdir bizni



bir kafedrada hamkasb sifatida birga mehnat qilish baxtiga muyassar qildi. Men uchun bu oddiy hamkasblik emas. Bu – ustozning yonida ishlab, undan yana va yana saboq olish, uning tajribasidan bahramand bo‘lish baxtidir.

Ustoz, Sizga qarab ko‘p narsani o‘rganganman: ilmga sadoqatni, kasbga mas’uliyatni, shogirdga mehrni va insoniylikni. Balki yillar o‘tib, ayrim darslar, ayrim voqealar xotiramdan ko‘tarilar, ammo ustozdan ko‘rilgan yaxshilik va berilgan ishonch hech qachon unutilmaydi.

Ba’zan inson yillar o‘tibgina anglaydi: uning hayotidagi eng katta boyliklardan biri – o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan Ustoz ekan. Men esa hayot yo‘limda Sizdek ustoz uchraganidan va Sizning shogirdingiz bo‘lganimdan doimo faxrlanaman.

Agar bugun men kimlargadir ustoz bo‘lib, biror shogirdning qalbiga yaxshilik, ilm va ishonch urug‘ini qadab kelayotgan bo‘lsam, bunda Siz bergan tarbiyaning ham hissasi bor. Shogird ustozdan olgan eng katta meros uning bergan ilmi emas, balki o‘zi ko‘rsatgan ibratdir.

Umringiz uzoq bo‘lsin, ustozim. Siz bergan yaxshiliklar oldida “rahmat” degan birgina so‘z juda kamlik qiladi. Ammo bilingki, shogirdingizning qalbida Sizga bo‘lgan hurmat va minnatdorlik hamisha bor.

Hurmat bilan shogirdingiz,
Mo‘minmirzo XOLMO‘MINOV

Madaniyat va zamonaviylik,

AN’ANA VA INNOVATSIYA TO‘QNASHUVI



MIRZOBEK SATTOROV,
“Ashula va raqs” ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich talabasi

Madaniyat insoniyat jamiyatining tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. U nafaqat moddiy boyliklar, balki ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar,estetik qarashlar va dunyo qarash tizimini ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan madaniyat jamiyatning o‘zligini anglash, tarixiy xotirani saqlash va ijtimoiy tajribani uzatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir jamiyat o‘zining madaniy modeli orqali boshqa jamiyatlardan ajralib turadi va aynan shu model uning milliy identigini belgilaydi.

Zamonaviylik esa ijtimoiy hayotning yangilanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan fenomen hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda texnologik rivojlanishning tezlashuvi, axborot almashinuvi intensivligining ortishi va kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida madaniyatning shakllanishi va tarqalish mexanizmlari tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet va raqamli platformalar madaniyatni global miqyosda tezkor tarqatish imkonini yaratmoqda.

An’anaviy madaniyat jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U avloddan-avlodga uzatiladigan qadriyatlar tizimi bo‘lib, insonlarning axloqiy me’yorlarini, xulq-atvorini va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladi. An’analar jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi va insonlarga o‘z tarixiy ildizlarini anglash imkonini beradi. Shu sababli an’anaviy madaniyatni saqlab qolish masalasi globalizatsiya sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Biroq, zamonaviylikning jadal rivoji ko‘plab an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, madaniy inqiroz xavfini ham keltirib chiqaradi. Masalan, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi natijasida milliy san’at turlari va urf-odatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Shu bilan birga, yoshlar ongida global madaniyat elementlarining ustunlik qilishi milliy identigining zaiflashishiga olib keladi.

Zamonaviy madaniyatning yana bir muhim jihati uning dinamik va o‘zgaruvchan xarakterga ega ekanligidir. Innovatsiyalar madaniyatni boyitadi, yangi ijodiy shakllar va ifoda vositalarini yaratadi. Masalan, an’anaviy san’at turlarining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi yangi madaniy mahsulotlarning yaratilishiga olib kelmoqda. Raqamli san’at, multimedia loyihalar va virtual madaniyat shakllari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

An’ana va innovatsiya o‘rtasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo‘lib, ular o‘zaro inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi. Har qanday innovatsiya ma’lum darajada an’anaga tayanadi, chunki u mavjud tajriba va bilimlar asosida shakllanadi. Shu bilan birga, an’analar ham zamon talablari asosida yangilanib boradi. Bu jarayon madaniyatning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi. Globallashuv sharoitida madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib, madaniy integratsiya jarayonlari tezlashmoqda. Bu esa madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashishiga olib keladi. Biroq ushbu jarayon “madaniy standartlashuv” xavfini ham yuzaga keltiradi, ya’ni turli madaniyatlar o‘ziga xosligini yo‘qotib, yagona global modelga moslashib boradi.

Shu sababli milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyatda madaniyatni rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri – an’anaviy qadriyatlarni innovatsion yondashuvlar orqali targ‘ib qilishdir. Masalan, milliy folklor, musiqa va san’at namunalari zamonaviy sahna, kino, internet platformalari orqali keng auditoriyaga yetkazilishi mumkin. Bu esa nafaqat madaniyatni saqlashga, balki uning ommalashuviga ham xizmat qiladi.

Yoshlar madaniyat va zamonaviylik o‘rtasidagi munosabatlarning eng faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ular bir vaqtning o‘zida ham an’anaviy qadriyatlarni qabul qiluvchi, ham zamonaviy innovatsiyalarni targ‘ib qiluvchi qatlamdir. Shu sababli yoshlar ongida madaniy muvozanatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimi, madaniy siyosat va ijtimoiy institutlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, madaniyat va zamonaviylik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar murakkab, ko‘p qirrali va doimiy rivojlanib boruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning to‘qnashuvi nafaqat muammolarni, balki yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltiradi. Eng muhim jihat-ushbu jarayonni to‘g‘ri boshqarish va an’ana hamda innovatsiya o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA ZAMONAVIY TADBIRKORLIK:

ELEKTRON TIJORATNING YANGI IMKONIYATLARI

2026-yil 16-sentyabr kuni Toshkent viloyatida o‘tkazilgan o‘quv-amaliy seminar misolida



DILNOZA ADILOVA,
“San’at va madaniyat sohasi menejmenti” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan yangilanishlar insonlarning dunyoqarashi, faoliyat yuritish usullari va iqtisodiy munosabatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va shakllarini o‘zgartirib, elektron tijoratni zamonaviy iqtisodiy hayotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

Mazkur jarayonni qadriyatlar transformatsiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki tadbirkorlik faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki mehnat, mas’uliyat, ishonch, halollik, tashabbuskorlik, mijozga hurmat va yangilikka intilish kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisadir. Vaqt o‘tishi bilan ushbu qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari ham o‘zgarib bormoqda.

2026-yil 16-sentyabr kuni Toshkent viloyatida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Toshkent viloyati filiali hamda Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida “O‘zbekistonda elektron tijorat orqali kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari” mavzusida o‘quv-amaliy seminar tashkil etildi. Tadbirda viloyatda faoliyat yuritayotgan 200 nafardan ortiq kichik va o‘rta biznes vakillari ishtirok etdilar. Seminarning asosiy maqsadi tadbirkorlarni zamonaviy elektron tijorat vositalari bilan tanishtirish, mahsulotlarni onlayn savdoga olib chiqish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarni yangi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘ldi.

Tadbirning rasmiy qismida soha vakillari va rahbarlar tomonidan elektron tijoratning bugungi iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va yangi bozor imkoniyatlari haqida fikrlar bildirildi. Amaliy qismda esa tadbirkorlar uchun elektron savdo, onlayn faoliyat va zamonaviy raqamli imkoniyatlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratildi.

Tadbir davomida tadbirkorlikning tarixiy shakllaridan bugungi raqamli iqtisodiyotgacha bo‘lgan o‘zgarishlarga e’tibor qaratildi. Ilgari savdo-sotiq jarayonida mahsulotni izlash, uni xarid qilish, bir hududdan boshqa hududga olib borish va xaridorga yetkazib berish ko‘proq vaqt, mehnat va jismoniy harakatni talab qilgan. Bugungi kunda esa elektron tijorat ushbu jarayonlarning katta qismini raqamli muhitga ko‘chirmoqda. Bu holatni qadriyatlar transformatsiyasining amaliy ko‘rinishlaridan biri sifatida baholash mumkin. Avvalgi savdo madaniyatida yuzma-yuz muloqot va bevosita munosabat muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, bugungi elektron tijoratda tezkorlik, raqamli savodxonlik, axborotga ishonch, onlayn muloqot, xizmat sifati va iste’molchi huquqlariga hurmat kabi yangi ko‘nikma va qadriyatlar yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu ma’noda elektron tijoratni faqat savdo qilishning yangi vositasi sifatida emas, balki jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarish jarayonini ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida ham ko‘rish mumkin. Tadbirkorning zamonaviy qiyofasi endilikda faqat mahsulot ishlab chiqarish yoki uni sotish bilan cheklanmaydi. U raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish, yangi bozorlarni izlash, mijoz ehtiyojini anglash, innovatsion yondashuvlardan foydalanish va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirishni ham talab etadi.

Mazkur tadbir ilmiy izlanish bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham namoyon etdi. Qadriyatlar transformatsiyasini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki jamiyatning kundalik hayotida, xususan, tadbirkorlik va elektron tijorat kabi zamonaviy jarayonlarda kuzatish mumkin. Shu jihatdan seminar ilmiy kuzatuv, fikr almashish va amaliy tajriba uchun muhim maydon bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijoratning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabat va yondashuvlarning ham yangilanishiga olib kelmoqda. Qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida an’anaviy mehnat va savdo qadriyatlari saqlangan holda, ularga raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash, tezkorlik, ochiqlik va yangi imkoniyatlardan foydalanish kabi zamonaviy jihatlar qo‘shilmoqda. 2026-yil 16-sentyabr kuni o‘tkazilgan mazkur o‘quv-amaliy seminar ana shu o‘zgarishlarni amaliy jihatdan ko‘rish va muhokama qilish imkonini berdi.



DONIYOR MIRZO,
Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

UMID UZMA DUNYODAN

Qo‘ldan ketsa ganju zarlari,
Yopilmasin umid daftari,
Sharoitsiz esa yer shari,
Umidingni uzma dunyodan.

Qo‘llamasa tanish-bilishing,
Uch oyda ham bitmasa ishing,
Qor qirovsiz o‘tsada qishing,
Umidingni uzma dunyodan.

Ko‘rolmasa qo‘shni degani,
Koyimagin, jigarim mani,
Rizqing bormi, uyda yegani,
Umidingni uzma dunyodan.

Yuraklarda yashasa g‘ashlik,
Alam bilan o‘tadi yoshlik,
Yoring sen-la qilmasa tushlik,
Umidingni uzma dunyodan.

Yurting, Vatan, uying-joying tinch,
Yiqilsang ham siqilmagin hech,
Kurash, izlan qayta yig‘ib kuch,
Umidingni uzma dunyodan.

Ko‘kda quyosh kezsa darbadar,
Tutqich bermas ersa ganju zar,
Boylik seni suymasa agar,
Umidingni uzma dunyodan.

O‘tkinchidir, o‘tadi bari,
Gul changidan bol yig‘ar ari,
Yurtni boqar, yurt bolalari,
Umidingni uzma dunyodan.

Rizqing bormi, yashaysan uzoq,
Asrlarni qaritgan tuproq,
Oq haliyam qoramas, oppoq,
Umidingni uzma dunyodan.

Doniyor Mirzo elga quloq sol,
Saboqlardan yana saboq ol,
Ijoding qil, sur shirin xayol,
Umidingni uzma dunyodan.

MEN UZOQ YASHAYMAN

Umr – o‘zi qisqa, uni yanayam,
G‘am-anduh ichida qisqartma, ey gul.
Onalar oyog‘i ostida jannat,
Aslida bir qadam jannatgacha yo‘l.

Sen ona bo‘lasan, hademay, ona,
Jannatni qidirib sarson bo‘lmasman.
O‘lganlar jannatga kiradi dema,
Men uzoq yashayman, hali o‘lmasman.

Umr – o‘zi qisqa, ana, odamlar,
Bir-birin ayamay o‘ldirayotir.
Doniyor Mirzo o‘lmas, o‘lim chikora,
Temirqalb odam u, olma xavotir.

O‘ZBEKISTON QOMUSI

Adolat ramzi erur,
Hayot – qonun-qoida.
Olamda odam uchun,
Najot u koni foyda.

To‘g‘ri yo‘lga mayoqdir,
Yo‘l ko‘rsatar shamchiroq.
Nomi Konstitutsiya,
Toliying bo‘lsin porloq.

To‘g‘ri yo‘l, to‘g‘ri yashash,
Elning or-u nomusi.
Xalqimni birlashtirgan,
O‘zbekiston Qomusi.

Doniyor Mirzo bugun to‘y,
Qomusing tug‘ilgan kun.
Har qadamda haq-huquq,
Nomusing tug‘ilgan kun.

YAXSHI ODAMLAR

Yaxshilikni yomonlik bilmas yaxshi odamlar,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar.
Foyda yoqar bol kabi, ziyon zahardan achchiq,
Nomi mangu yashaydi o‘lmas yaxshi odamlar.

Ko‘r-ko‘rona ish qilmas, qilgan ishi savobdir,
Ota-ona poyiga qilganlari tavofdir,
Yaxshilarga xushsuxan doim hozirjavobdir,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Haq yo‘lida haq so‘ylar el-ulusga xushzabon,
Do‘stxayolu do‘st o‘ylar yurtda el dorilomon,
Yaxshiligi yaxshidir yomonlik qilmas hamon,
Yomonga ham yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Dunyo topsa yarmini bo‘lishadi yaxshi-da,
Yaxshi bilan do‘st bo‘lib kelishadi yaxshi-da,
To‘kilmaydi dasturxon to‘lishadi yaxshi-da,
Yomonga ham yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

Doniyor Mirzo havas qil, hasad elni o‘ldirar,
Hasad zaqqum misoli qizil gulni so‘ldirar,
Yaxshilik qil, yomonlik paymonangni to‘ldirar,
Yaxshilikka yomonlik qilmas yaxshi odamlar.

KAM BO‘LMAYSAN

Suyansang, suyanchiq tog‘ing ham ular,
Poylari jannati bog‘ing ham ular,
Dunyoda eng baxtli chog‘ing ham ular,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

Taqdiri azalning tilab bergani,
Joningga jonini ulab bergani,
Olamda odamday baxtli yurgani,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

Olamda baxtlidir har tirik banda,
Yuraging gul ochar gulgun chamanda,
Ota-onang tirik yurgan Vatanda,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

Danagidan mag‘zi shirin deydilar,
O‘zi chopon – bolang zar to‘n kiydilar,
Bolalaring yong‘oq-mayiz yoydilar,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

Bolangga handalak tilib beradi,
Nonini samolyot qilib beradi,
Ular ham bil, sening baxting ko‘radi,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

Qara, havas qilgin Doniyor Mirzo,
Ota-onam desang siylaydi dunyo,
Ular bag‘ri misli jannatdir go‘yo,
Ota-onam desang, kam bo‘lmaysan.

KETIB BORAR ESKI KARVON

Ketib borar eski karvon,
Sarboniga suyangancha.
Ko‘zlar qumga to‘lib har on,
Oltin rangga bo‘yangancha.

Ketib borar eski karvon,
Sarg‘aygan cho‘l, suvsiz sahro.
Yodga tushar cho‘lda jonon,
Eslamaydi meni Zahro.

Ketib borar eski karvon,
Qum ko‘madi izlarini.
Tuyalari yig‘laydi qon,
Yumib-ochib ko‘zlarini.

Ketib borar eski karvon,
Ergashmading, Doniyor Mirzo.
O‘zgarmading, sen hech qachon,
Lek o‘zgardi cho‘lu sahro.

Odam bo‘lish qiyin

O‘LMAS UMARBEKOV



SARVARA SODIQOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Dunyoda shunday asarlar borki, ularni o‘qib bo‘lgach, sahifalari yopilsa-da, qalbdagi aks sadosi uzoq vaqt dilingizni tirnab yuradi. Hayot, samimiy muhabbat va kutilmagan xiyonat girdobida inson ruhiyatining qanchalik ojiz va ayanchli ahvolga tushishini anglatuvchi ana shunday asarlardan biri – O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” qissasidir. Ushbu asar mutolaasidan so‘ng kunlar davomida o‘zimga kelolmay, insoniylik va tuyg‘ular qadri haqida teran o‘yga toldim. Kitobning ilk sahifalarida Abdullajon va Gulchehraning beg‘ubor va sof sevgisini ko‘rib, qalbim quvonchga to‘lgan edi. Avvaliga Abdullajondan hech qanday pastkashlikni kutmagan edim. Ammo hammasi Gulchehra o‘z ishonchini Abdullaga topshirganidan boshlandi. O‘shandan keyin Abdulla Gulchehradan zerikishni boshladi. U shaharga kelib butunlay o‘zgaradi. Abdulla professor olim bo‘lish ilinjida Tursunxon amakining qizi Sayyoraga uylanishni xayol qiladi. Bu orada bechora Gulchehra qishloqda homilador bo‘lib qolgani haqida tinmay Abdullaga xat jo‘natadi. Abdulla esa bundan xabardor bo‘lsa ham Gulchehraga javob yozmaydi. Bechora qiz aldanganini sezsa-da Toshkentga o‘qishga keladi.

Ushbu asardagi eng ta’sirli va mening qalbimni parchalab yuborgan voqea ro‘y beradi. Gulchehra Abdullaning onasidan: “Abdullajonimni professorning qizi Sayyoraga uylantiryapmiz”, degan gaplarini eshitadi-yu u uchun vaqt to‘xtab qolgandek tuyuladi. Gulchehraning beg‘ubor orzulari, qalbidagi go‘zal dunyosi bir lahzada ostin-ustun bo‘lib ketadi. U bu xiyonatni ko‘tara olmaydi va shahardagi baland bino tomidan o‘zini pastga tashlaydi. Shu tariqa, Gulchehra bu nopok dunyodan qutiladi. Bundan xabar topgan hamma qishloqdagilar hatto Abdulla ham xavotirga tushadi. Endi qishloqdagilar Abdulladan voz kechib uni hatto o‘ldirishga tayyor turishadi. Qilar ishni qilib qo‘ygan Abdulla qishloqqa kelib Gulchehra qabrini ustida yig‘lab turganda Gulchehraning do‘sti Samad keladi-da “Bo‘ldi, ket! Tirigida xorlading, o‘lganida tinch qo‘y. Ket”, - deb Abdullaga baqiradi. Samad Gulchehrani qattiq sevar edi ammo u Gulchehrani Abdulladan himoya qila olmadi. Asar so‘ngida Abdulla olim bo‘lish oson ammo odam bo‘lish qiyin ekanligini hech bo‘lsa-da anglab yetadi. Ammo endi buning foydasi yo‘q edi.

Aynan mazkur asarni tanlaganimning boisi, Gulchehra bilan tengdosh bo‘lganligimiz uchundir. Tengqur qiz sifatida uning tuyg‘ularini his qilish menga yanada osonroq kechdi. Asarni o‘qir ekanman, bu dunyoda mansab har doim sevgidan va odamiylikdan oldinda yurishi va erkak zotiga aslo ishonch yo‘qligini ich-ichimdan his qildim. Angladimki, bu yolg‘on dunyoda hech bir sevgan qalb halovatda yashay olmas ekan. Shuning uchun ham qachon bu asarni eslasam, ko‘zimga yosh keladigan odat paydo bo‘ldi. Chunki o‘sha baland binodan qulagan shunchaki Gulchehra emas, uning dunyoga bo‘lgan beg‘ubor ishonchi edi…

Adolat fasli

DURDONA TEMURQULOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida Sohibqiron Amir Temur hayoti va adolatli boshqaruviga bag‘ishlangan “Adolat fasli” spektaklining premyerasi bo‘lib o‘tdi. Zal chiroqlari o‘chib, sahna parda ochilishi bilan tomoshabinlar e’tiborini asarga jalb etishda muayyan qiyinchiliklar ko‘zga tashlandi. Masalaning sababi oddiy, biroq uning yechimi ancha murakkab edi: mahallalardan taklif etilgan tomoshabinlarning ko‘pchiligi teatrga yosh bolalari va hatto chaqaloqlari bilan tashrif buyurishgan. Natijada, yosh bolalarning shovqini sahna hamda tomoshabin o‘rtasida uzviy ruhiy muloqot va jonli kontakt o‘rnatilishiga xalaqit berdi. Mas’ul xodimlar tomonidan tartib so‘ralganda ham, ayrim tomoshabinlarning teatr madaniyati hamda saviyasidagi kamchiliklar sabab holat o‘zgarishsiz qoldi. Albatta, ushbu retsenziya sof spektakl va rejissyorlik ishi haqida bo‘lishi lozim edi, biroq asar taassurotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bu kabi tashkiliy omillarni ham chetlab o‘tib bo‘lmaydi.



Spektaklning asosiy dramatik tuguni va syujet yo‘nalishi Sohibqironning yuksak adolat mezoni hamda shaxsiy otalik tuyg‘usi o‘rtasidagi ziddiyatli to‘qnashuvga qaratilgan.

Asar voqealarida Shohruh Mirzoga topshirilgan shahar va viloyat undagi mas’uliyatsizlik hamda boshboshdoqlik sababli xarobaga aylangani tasvirlanadi: shaharliklar va begunoh qizlar tazyiqlarga uchraydi, dehqon-u hunarmandlarning peshona teri evaziga topgan mablag‘lari esa nokas vazirlarning yonchig‘iga borib tushadi. Holatdan xabar topgan Amir Temur shaharni va undagi aybdorlarni qat’iy jazolash haqida farmon beradi. Shahar hokimining birinchi rafiqasi xon avlodidan bo‘lib, u Sohibqiron huzuriga kirib yolvoradi hamda uning otalik tuyg‘ularini jumbishga keltirishga urinadi. Biroq davlat va adolat manfaati har qanday shaxsiy rishtadan ustun turishi sababli, Amir Temur bu o‘rinda shafqatli ota emas, eng avvalo, mas’uliyatli hukmdor sifatida qaror qabul qilishga majbur edi.

Shu tunda Sohibqiron huzuriga o‘sha voqealar markazida bo‘lgan, biroq butunlay begunohligi Amir Temurga ayon bo‘lgan bir naychi kiradi. “Haq yo‘lida va qonun oldida o‘z o‘g‘limni qutqara olmagan bo‘lsam-da, hech bo‘lmasa mana shu haqiqiy begunoh insonni saqlab qolay”, deya imperator o‘z sarkardasiga naychini xufiyona qochirib yuborishni buyuradi.

Nihoyat, adolat tantana qilib, haqiqat yuzaga chiqadi. Shohruh Mirzoning sarkardasi Sohibqiron huzuriga kirib, shahardagi tartibsizliklarga shahzodaning og‘ir xastaligi hamda bu vaziyatdan g‘arazli va ayyor kimsalar ustomonlik bilan foydalanib qolganini ma’lum qiladi. Farzandining og‘ir ahvoldaligi va asl haqiqatdan ogoh bo‘lgan Amir Temur uni o‘lim jazosidan ozod etib, zimmasidagi lavozimidan ozod qiladi.

Spektakl so‘ngida shuni alohida ta’kidlash joizki, ijodiy jamoa Amir Temur siymosida nafaqat qat’iyatli va adolatli davlat arbobini, balki islom dini ahkomlarini teran anglagan, diyonat va insoniylikni hamma narsadan ustun qo‘ygan buyuk shaxsiyatni ham mahorat bilan yoritib bera olgan.

Tafakkur va tadbirkorlik chorrahasida



AROFAT TO‘XATYEVA,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Yoz fasli uchun barcha insonlar yangi rejalar tuzadi, sayohatlar uyushtirishadi va yoz faslini mazmunli o‘tkazishni maqsad qilishadi. Men ham shu fikrda edim: katta umidlar bilan sayohatlar qilishni rejalashtirdim. Lekin bu men o‘ylagandek oson ish emasligini angladim. Shunga qaramay, bu meni fikrimdan qaytara olmadi, shunchaki bu maqsadimni keyinroqqa surib qo‘ydim, xolos.

Maqsadimga aylangan birinchi narsa va sayohatni keyinga surishimning sababi shundan iborat ediki, menda sayohat uchun yetarli pul bor edi. Ammo sayohatdan keyingi rejalarimni ham o‘ylashim kerakligini tushundim. Qancha sayohat qilsam ham, keyingi maqsadlarimni bemalol amalga oshirishim uchun hisobimda yetarli mablag‘ bo‘lishini ta’minlash maqsadida harakatni boshlashga qaror qildim. Men yangi biznes ochishni niyat qildim va bu ishga kirishdim. Shunda har bir insonni har tomonlama suyab turuvchi, ya’ni moliyaviy yostiqchasi bo‘lishi shartligini tushundim. Yangi biznesimni boshladim, lekin avval moliyaviy savodxonligim yetarli darajada emasligini angladim. Bu borada, menga opam yordam berdi.

Biroq juda afsusda edim. Chunki shu paytgacha yetarli bilim va ko‘nikmalarim bo‘lganida, bu ishni o‘zim ham uddalay olardim, degan fikr bilan yashadim. Biznes men uchun faqat daromad topish vositasi emas, balki hayot maktabiga aylandi. Men shuni tushundimki, biznesda xato qilishning o‘zi katta muammo emas. Undan xulosa qilmaslik va xatoni tahlil qilmaslik – asl fojia.

Kitoblar insonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishini va barcha vaqtimni ish bilan to‘ldirib, o‘qishni butunlay chetga surib qo‘yish ham to‘g‘ri emasligini angladim. Biznes va kitob bir-birini to‘ldirib turuvchi omillardir. Kitob o‘qish biznesning o‘rnini bosa olmaydi, biznes tajribasi esa kitob o‘qishning o‘rnini to‘liq to‘ldira olmaydi. Kitob menga nazariya, tushuncha va boshqa insonlarning tajribasini bersa, biznes esa shu bilimlarimni amalda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Shu sababli men kelajakda kitob o‘qishni biznesdan alohida faoliyat sifatida emas, balki uning rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim odat sifatida shakllantiraman. Zero, “Kitob o‘qish – vaqtni sarflash emas, vaqtni kelajakdagi imkoniyatlarga aylantirishdir!”

ibrat

Ilmni fursat bo‘lganda o‘rganish kerak, chunki ilm zarur bo‘lgan paytda fursat topilmaydi.

Abdullox ibn MA’SUD

Johilning bilaman deyishi, xuddi ko‘rning ko‘raman, deyishiga o‘xshaydigan holat.

Muhammad KAMOL

Yashaganimiz uchun emas, sevganimiz uchun ham hayotni yaxshi ko‘ramiz. Sevgida doim qandaydir telbalik bo‘ladi. Bu telbalik uchun esa har doim sabab topiladi.

Fridrex NITSHE

QUYOSHNING SO'NGGI KUNI



ROZIYAJON RAVSHONBEKOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Shahlo oddiy bir qiz, ammo uning hayoti doimo kurashdan iborat edi.

U bolaligidan yurak parogidan aziyat chekardi. Shifokorlarning umidlari kamaygan, hayoti esa qisqa muddatga bog‘liq edi. Shunday kunlarning birida Shahlo yana bir bor o‘ziga savol berdi:

“Agar menda faqat bir kun qolganda, uni qanday o‘tkazar edim?”

Ertalab uyg‘ongan Shahlo kunning boshlanishini his qilishni xohladi. Deraza oldiga kelib, quyosh chiqishini tomosha qildi. Yorug‘lik uning yuzini yoritdi, go‘yo bu quyosh unga: “Bugun sening kuning”, degandek edi. O‘sha tongda Shahlo o‘zini boshqa hech qachon his qilmagan darajada kuchli va umidvor his qildi.

Shahlo ertalabki nonushta paytida oilasi bilan birga edi. Onasi uning sochlarini tarar ekan, yoshlarining ko‘zlarida yashiringanini qizdan yashirishga urinardi. Shahlo esa onasining yuziga qarab, tabassum qildi:

– Onajon, bugun menga dunyoni ko‘rsatib bering, hammasini his qilishni xohlayman!

Oilasi bilan shaharga borib, bolalikdagi orzularini amalga oshirishga kirishdi. Shahlo hayotida ilk bor muzqaymoq yeb ko‘rdi, samoga havo sharlarini uchirdi va daryo bo‘yida quyosh nurida suzayotgan qushlarni kuzatdi. Uning kulgisi hamma joyni yoritardi, go‘yo u o‘sha onni umrbod yashamoqchi edi.

Kun davomida Shahlo bolalar uyiga bordi. U yerda o‘zidan kichik bolalarga kitob sovg‘a qildi, ular bilan o‘ynadi. Bir bolaning so‘zi uning yuragida abadiy iz qoldirdi:

– Opajon, sen dunyodagi eng mehribon odamsan!

Shahlo kechqurun quyosh botishini tomosha qilayotib, otasiga yuzlandi:

– Dada, bu dunyoda yutqazganimdan ko‘ra yutganim ko‘proq ekan. Eng katta yutug‘im: sizning, onamning mehrini his qilishim.

Kun oxirida u oilasi bilan uyga qaytdi. Bugun u hech qanday dori-darmonsiz kunini o‘tkazgandi. Xonasi devorlariga qarab: “Shu xonada ko‘p yig‘laganman, ammo bugun bu joy mening orzularim boshlangan joy bo‘lib qoladi,” dedi.

Shahlo o‘sha kuni ko‘zlarini yumarkan, ichida chin dildan baxtiyor edi. Hayoti qisqa bo‘lsa ham, uning bir kunlik yorug‘ hayoti boshqalarga umid va mehr tarqatdi. U o‘z hayotini quvonchli bir quyoshli kun kabi yakunladi.

“Hayotimizning uzunligi emas, uni qanday yashaganimiz ahamiyatli. Ba’zida bir kun butun umrning ma’nosini o‘zgartirishi mumkin”.

QATAG‘ON QURBONLARI MUZEYIDAN OLGAN TAASSUROTLARIM





ASILBEK QURBONALIYEV,
“Muzeyshunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Yaqinda kursdoshlarim bilan Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan Qatag‘on qurbonlari muzeyiga tashrif buyurdik. Bu maskan nafaqat tarixiy eksponatlar saqlanadigan, balki xalqimiz boshidan kechirgan og‘ir davrlarni yodga soluvchi muhim ma’naviy makondir.

Muzey ekspozitsiyasidagi hujjatlar, fotosuratlar va boshqa eksponatlar orqali qatag‘on yillarida ta’qib qilingan, qamoqqa olingan, surgun qilingan va hayotidan ayrilgan yurtdoshlarimiz taqdiri haqida ma’lumot oldik. Kitoblarda o‘qilgan sana va raqamlarni tarixiy hujjatlar hamda shaxsiy buyumlar orqali ko‘rish o‘tmish voqealarini yanada chuqurroq his qilishga undaydi. Muzeyshunoslik: muzey menejmenti va madaniy turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba sifatida ekspozitsiyaning tashkil etilishiga alohida e’tibor berdim.

Muzeyning vazifasi faqat tarixiy buyumlarni saqlash emas, balki tashrif buyuruvchiga tarixni anglatish, qiziqish uyg‘otish va o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasida ma’naviy bog‘liqlik yaratishdan iborat ekanini angladim.Qatag‘on qurbonlari muzeyi yoshlar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday maskanlarga tashrif tarixiy xotirani mustahkamlaydi, milliy o‘zlikni anglashga va ajdodlar taqdiriga befarq bo‘lmaslikka yordam beradi. Shuningdek, muzeylar madaniy turizmning muhim obyektlari sifatida xalqimiz tarixi va ma’naviy merosini keng targ‘ib qiladi. Muzeydan chiqarkanman, tarixiy xotirani asrash kelajak oldidagi mas’uliyat ekanini chuqur angladim. O‘tmishni unutmaslik – ajdodlar taqdiridan saboq olib, kelajakni yanada ongli va mas’uliyat bilan qurish demakdir.

Muassis:
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Baxtiyor YAKUBOV

Tahrir hay’ati:
Hamdam ISMOILOV
Oybek DAVLATOV
Doniyor MIRZO
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug‘ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O‘lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 30.09.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.

Gazeta elektron ko‘rinishda havola etilmoqda